

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	10
Bauyetdinov M.J.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI.....	18
Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna	
TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI	23
O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	30
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'I SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	33
Farmanov Jonibek Ziyadullayevich	
BILVOSITA SOLIQLARNI MA'MURIY BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	38
Mansurova Arofatxon Shavkat qizi	
BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	43
G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li	
IDEMPOTENT O'LCHOVLAR SIMPLEKSIDA ANIQLANGAN CHIZIQLI OPERATORLAR DINAMIKASINING EKOLOGIK MODELLASHTIRISHDAGI TATBIQI	50
Karimov Muzaffar Musaxonovich, Karimova Shalola Musayevna	
BANKLARARO LIKVIDLILIKNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	56
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
BANKLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH	60
Asemova Rano Japbarbergenovna	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ АПК.....	66
Ли Марина Рудольфовна	
POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI	70
Hasanov Bahrom Bo'ronovich	
XORIJIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING TA'SIRI.....	76
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
SULFIDLI POLIMETALL RUDALARNI SELEKTIV FLOTATSIYALASHDA YANGI AVLOD REAGENTLARINI QO'LLASHNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI TAHLILI.....	79
Xushvaqтова Zamira Hikmatulloyevna, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich	
LOGICLABUZ: A BROWSER-NATIVE CO-SIMULATION PLATFORM FOR THE VIRTUALIZATION OF MULTI-MCU ROBOTIC SYSTEMS	84
Ergashev Adizbek Kamol ugli	
DUBAY IQTISODIYOTINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV BOSQICHLARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	94
Dilmira Abdumalikovna Shamusarova	
MINTAQADA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO MODELLARI.....	99
Yusupova Mehrigon O'ktamovna	
EKONOMETRIK MODELLARNI TANLASH VA ULARNING SIFATINI BAHOLASHDA INTEGRAL MEZONNI QO'LLASH	104
Turayev Baxtiyor Ergashevich	



PHP VA SUN'YI INTELLEKT SINERGIYASI: LARAVEL ASOSIDA INTELLEKTUAL VEB-TIZIMLARNI LOYIHALASH ARXITEKTURASI.....	110
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Temirova Orifa, Yuldashboyev Shermuxammad	
CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024).....	119
Yusufjon Pulatov	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	129
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	
МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КРУПНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	135
T.T. Жураев	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUDUDIY BANDLIKNI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI	140
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
YASHIL IQTISODIYOT, RESURS SAMARADORLIGI, TABIIY KAPITAL, AYLANMA IQTISODIYOT, EKOLOGIK SAMARADORLIK VA INKLYUZIV O'SISH TUSHUNCHALARINING ILMIY EVOLYUTSIYASI TAHLILI	146
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
BUXORO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI.....	160
Ibragimov Aziz Turayevich	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA SOLIQLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	168
Shirinov Uchqun, Bahodirova Madinabonu	
TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING SWOT VA OMILLI TAHLILI.....	176
Alimova Shamsiya Abidovna	
ВЫЗОВЫ РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКОВ: ИНФРАСТРУКТУРНАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ, ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ.....	182
Умарова Шахноза Акбаровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QUYOSH ENERGIYASIGA ASOSLANGAN YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMINING IQTISODIY-EKOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	190
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	200
Xasan Axmedov	
ZAMONAVIY TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARIDA TRAFIK TURLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNING XIZMAT KO'RSATISH SIFATIGA TA'SIRI.....	204
Abdujapparova M.B., Mirxosilov M.M.	
TURIZMNI MINTAQAVIY RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASH MODELINING TAMOYILLARI VA TARKIBIY ELEMENTLARI	209
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES AND FOOD SECURITY IN DEVELOPED COUNTRIES	214
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	



THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR OF UZBEKISTAN: AN ECONOMETRIC ANALYSIS	221
Toshmurod Kulmanov, Sarvar Urinov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION JARAYONLARNI MOLIYALASHTIRISHNING MATEMATIK MODELI	228
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, A'zam Qutbiddin A'zamzoda	
ОБЯЗАТЕЛЬНОЕ МЕДИЦИНСКОЕ СТРАХОВАНИЕ В КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	234
Омокеев Максымбек Конколойевич	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	239
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Abduxamidov Sarvar Adxamovich

Ipak yo'li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tadqiqotchisi

E-mail: sarvarabduxamidov4@gmail.com,

[ORCID: 0000-0003-0530-0021](https://orcid.org/0000-0003-0530-0021)

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi tarmoqlarini innovatsion moliyalashtirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda qishloq xo'jaligi tarmoqlariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar dinamikasi, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi hamda ularning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligida innovatsion jarayonlarni jadallashtirish, bank kreditlari va investitsiya resurslaridan samarali foydalanish hamda raqamli agroozziq-ovqat tizimiga o'tishning ustuvor yo'nalishlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligida innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, innovatsion rivojlanish, innovatsion moliyalashtirish, investitsiyalar, moliyaviy barqarorlik, bank kreditlari, innovatsion mahsulotlar, agroozziq-ovqat tizimi, trend tenglamasi, prognozlash.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы инновационного финансирования и обеспечения финансовой устойчивости отраслей сельского хозяйства. Исследованы динамика инвестиций, направляемых в сельское хозяйство, объемы производства инновационной продукции и их влияние на экономическое развитие страны. Особое внимание уделено ускорению инновационных процессов в аграрном секторе, эффективному использованию банковских кредитов и инвестиционных ресурсов, а также приоритетным направлениям перехода к цифровой агропродовольственной системе. Результаты исследования могут быть использованы при разработке практических рекомендаций по стимулированию инновационного развития и совершенствованию финансовых механизмов в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: сельское хозяйство, инновационное развитие, инновационное финансирование, инвестиции, финансовая устойчивость, банковские кредиты, инновационная продукция, агропродовольственная система, трендовое уравнение, прогнозирование.

Abstract: This article examines the issues of innovative financing and financial sustainability in the agricultural sector. The study analyzes the dynamics of investments directed to agriculture, the volume of innovative products, and their impact on the country's economic development. Particular attention is given to accelerating innovation processes in agriculture, improving the efficiency of bank lending and investment resources, and identifying priority directions for the transition to a digital agri-food system. The findings provide a basis for developing practical recommendations aimed at promoting innovative development and improving financial mechanisms in the agricultural sector.

Keywords: agriculture, innovative development, innovative financing, investments, financial sustainability, bank lending, innovative products, agri-food system, trend equation, forecasting.

KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiyot tarmoqlarida boshqaruv, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda. Bu jarayon turizm sohasida ham yaqqol namoyon bo'lib, turistik mahsulotlarni shakllantirish, ularni targ'ib qilish, sotish va iste'molchilarga yetkazib berishning yangi mexanizmlarini vujudga keltirmoqda. Natijada raqamli iqtisodiyot turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda turistlar ehtiyojlarini tezkor qondirish imkonini beruvchi muhim omilga aylanmoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, turizm sohasida raqamli platformalar, onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar, sun'iy intellekt texnologiyalari va katta ma'lumotlar tahlilidan samarali foydalanish turistik xizmatlar bozorining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar turistik destinatsiyalar haqidagi ma'lumotlarning ochiqligi va tezkorligini ta'minlash bilan bir qatorda, turistik mahsulotlarning jozibadorligini oshirish, marketing faoliyatini takomillashtirish va turistik oqimlarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.



Shu bois raqamli transformatsiya jarayonlari mintaqaviy turizmni rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda ham turizmni iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda turistik xizmatlarni raqamlashtirish, elektron xizmatlar ko'lamini kengaytirish, turistik destinatsiyalarni raqamli muhitda targ'ib qilish va sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq hududlar kesimida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi, turistik ma'lumotlarni boshqarish tizimlari va raqamli marketing vositalarini qo'llash samaradorligi bo'yicha mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotganligi kuzatilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasini rivojlantirish masalalari so'nggi yillarda iqtisodchi olimlar va turizm sohasi tadqiqotchilari diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalarning turistik xizmatlar bozoriga ta'siri, turistik destinatsiyalarni raqamli muhitda boshqarish, elektron marketing vositalaridan foydalanish hamda turistik xizmatlarni raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligiga oid turli yondashuvlar shakllangan.

Turizm sohasini raqamlashtirishning nazariy asoslari va raqamli texnologiyalarning turistik xizmatlar rivojlanishiga ta'siri D. Buxalis, Z. Syang, M. Sigala va K. Xoll kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, D. Buxalis turizm sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi turistik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va iste'molchilar bilan o'zaro munosabatlarni takomillashtirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Z. Syang turistlarning qaror qabul qilish jarayonlarida internet resurslari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning ta'sirini o'rganib, raqamli axborot manbalari turistik mahsulotlarni tanlashda muhim ahamiyat kasb etishini asoslab bergan.

Turizm sohasida innovatsiyalar va raqamli transformatsiya jarayonlari M. Sigala tomonidan tadqiq qilinib, raqamli texnologiyalar turistik xizmatlarning yangi shakllarini yaratish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va turistlar ehtiyojlarini individuallashtirish imkonini berishi qayd etilgan. K. Xoll esa turizmni boshqarishda raqamli ma'lumotlardan foydalanish hududiy rivojlanish samaradorligini oshirish va turistik oqimlarni maqbullashtirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslagan.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham turizm sohasini raqamlashtirish va uning mintaqaviy rivojlanishga ta'siri bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, N. To'xliyev, I.S. Tuxliyev, A.A. Eshtayev hamda B.Sh. Safarovlarning ishlarida turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari, turistik xizmatlar bozorini takomillashtirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish masalalari o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida turistik xizmatlar sifatini oshirish, turistik infratuzilmani rivojlantirish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish turizm raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida baholangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy turizmni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini o'rganish maqsadida tizimli yondashuv, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiya, statistik tahlil hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasi iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, mamlakatning xalqaro turizm bozorida mavqei tobora mustahkamlanmoqda. BMTning turizm sohasiga oid ma'lumotlariga ko'ra, "2026-yilning yanvar–mart oylarida O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 37 foizga oshgan bo'lib, mamlakat turizm oqimi eng tez o'sgan dunyoning yetakchi besh davlatidan biri sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, 2026-yilning dastlabki besh oyida mamlakatga 5,3 milliondan ortiq xorijiy mehmon tashrif buyurgan bo'lsa, 2025-yil yakunlariga ko'ra mazkur ko'rsatkich qariyb 11,7 million nafarni tashkil etgan". Bu natijalar mamlakat turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini hamda sohaning yuqori o'sish salohiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Turizm sohasida kuzatilayotgan ijobiy o'zgarishlar vizasiz rejim qo'llanilayotgan davlatlar geografiyasining kengayishi, transport-kommunikatsiya infratuzilmasining takomillashtirilishi, raqamli xizmatlarning joriy etilishi va turistik infratuzilmaning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlar bilan bir qatorda ekologik, gastronomik va madaniy turizm yo'nalishlariga bo'lgan qiziqishning




ortishi mamlakat turistik mahsulotlarining diversifikatsiyalashib borayotganligini ko'rsatmoqda. Bu esa turizm sohasini raqamli iqtisodiyot talablari asosida yanada rivojlantirish, turistik xizmatlarni raqamlashtirish va mintaqaviy turizmni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi turizm sohasida xizmat ko'rsatish shakllari va boshqaruv usullarining o'zgarishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda turistik mahsulotlarni ishlab chiqish, targ'ib qilish va iste'molchilarga yetkazish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim raqobat ustunligiga aylanib bormoqda. Xususan, onlayn bronlash tizimlari, elektron to'lov platformalari, mobil ilovalar, raqamli marketing vositalari hamda sun'iy intellekt texnologiyalari turistik xizmatlarning tezkorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Jahon amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni turizm sohasiga keng joriy etgan mamlakatlarda turistik xizmatlar hajmi va turistlar oqimi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Turistlar sayohatni rejalashtirish, yo'nalish tanlash, joylashtirish vositalarini bron qilish va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish jarayonida asosan raqamli platformalardan foydalanmoqda. Bu esa turistik xizmatlar bozorida axborot almashinuvi tezligini oshirish bilan birga xizmat ko'rsatish xarajatlarini qisqartirish imkonini ham yaratmoqda.

O'zbekistonda ham turizm sohasini raqamlashtirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Onlayn bronlash xizmatlari, elektron to'lov tizimlari, turistik portallar va raqamli marketing vositalari joriy etilgan bo'lsa-da, hududlar kesimida ulardan foydalanish darajasi bir xil emas. "Ayniqsa, ayrim turistik destinatsiyalarda raqamli infratuzilmani yanada takomillashtirish, turistik ma'lumotlarning yagona elektron bazasini shakllantirish hamda mahalliy turizm subyektlarining raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati mavjud. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar sohaning raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida mintaqaviy turizmni rivojlantirishning zamonaviy raqamli mexanizmi taklif etildi (1-rasm)."



1-rasm. Mintaqaviy turizmni rivojlantirishning zamonaviy raqamli mexanizmi

Ushbu mexanizm raqamli infratuzilma, turistik ma'lumotlar bazasi, onlayn bronlash tizimlari, raqamli marketing platformalari, mobil xizmatlar, katta ma'lumotlar tahlili va intellektual boshqaruv texnologiyalarining o'zaro integratsiyasiga asoslanadi. Mexanizmning amalga oshirilishi turistik xizmatlar sifati va qulayligini oshirish, turistik mahsulotlarning bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda turistik oqimlarni samarali boshqarish imkonini beradi.

Shuningdek, tahlillar raqamli texnologiyalarni qo'llash natijasida turistik xizmatlar bozori ishtirokchilari o'rtasidagi axborot almashinuvi tezlashishi, marketing xarajatlari kamayishi va xizmat ko'rsatish jarayonlarining shaffofligi oshirishini ko'rsatdi. Bu esa o'z navbatida mintaqaviy turizmning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish, investitsiya jozibadorligini oshirish va turistik destinatsiyalarning xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Natijada raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy turizmni rivojlantirish raqamli platformalar, intellektual texnologiyalar va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini keng joriy etish bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Bu esa turizm sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar muhim strategik omillardan biriga aylanganligini ko'rsatdi. Turistik xizmatlarni raqamlashtirish, onlayn platformalardan foydalanish, elektron to'lov tizimlarini joriy etish va raqamli marketing vositalarini keng qo'llash turistik xizmatlar bozorining samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda turistlar ehtiyojlarini tezkor qondirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar turistik destinatsiyalarning jozibadorligini oshirish, turistik oqimlarni boshqarish va hududlarning raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mintaqaviy turizmni raqamli transformatsiya qilish jarayoni raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, yagona axborot bazalarining shakllanganligi, turizm subyektlarining raqamli ko'nikmalari hamda raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Ayrim hududlarda turistik ma'lumotlarning tarqoqligini bartaraf etish, raqamli servislarni yanada rivojlantirish hamda elektron marketing vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati mavjud bo'lib, bu holat turizm salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- respublika va hududlar kesimida turistik resurslar, xizmatlar va infratuzilma obyektlarini qamrab olgan yagona raqamli turistik platformani shakllantirish;
- turistik destinatsiyalarning raqamli pasportlarini ishlab chiqish hamda ularni milliy va xalqaro turistik portal-larga integratsiya qilish;
- mahalliy turizm subyektlarining raqamli marketing, onlayn savdo va elektron xizmatlardan foydalanish ko'nikmalarini oshirish bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini joriy etish;
- turistik oqimlarni prognozlash va boshqarish maqsadida statistik ma'lumotlar hamda raqamli ma'lumotlar tahliliga asoslangan monitoring tizimini takomillashtirish;
- mobil ilovalar, elektron gidlar va interaktiv navigatsiya xizmatlarini rivojlantirish orqali turistlar uchun qulay raqamli muhitni shakllantirish;
- davlat, xususiy sektor va turizm subyektlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini ta'minlovchi raqamli integrat-siya mexanizmlarini kengaytirish;
- turistik xizmatlarni targ'ib qilishda ijtimoiy tarmoqlar, kontent-marketing va boshqa raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish.

Mintaqaviy turizmni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish turistik xizmatlar bozorining samaradorligini oshirish, turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini mustahkamlash, investitsiya jozibadorligini yuksaltirish hamda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan keng foydalanish kelgusida turizm sohasining yuqori sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boltabaev M.R., Tukhliev I.S., Safarov B.S., Abdurakhimov S.A. **Turizm: nazariya va amaliyot.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. Tukhliev I.S., Abduqhamidov S.A. Strategic planning processes in regional tourism in the digital economy // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2021. – Vol. 2, No. 5. – P. 22–27.
3. Suyunovich T.I., Adhamovich A.S. Directions of Activation of Innovative Activities of Higher Education Institutions in Forming Innovative Economy // VVK: 75.81 T 88. – 2019. – P. 235.
4. Buhalis D. **eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management.** – London: Pearson Education, 2003. – 376 p.
5. Xiang Z., Fesenmaier D.R. **Analytics in Smart Tourism Design: Concepts and Methods.** – Cham: Springer, 2017. – 303 p.
6. Sigala M. **Social Media in Travel, Tourism and Hospitality: Theory, Practice and Cases.** – Surrey: Ashgate Publishing, 2012. – 336 p.



7. Hall C.M. **Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships**. – Harlow: Pearson Education, 2008. – 302 p.
8. Tuxliyev N., Abdullayeva T. **Natsionalnie modeli razvitiya turizma**. – T.: Gos. nauch. izd-vo «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2006. – 424 s.
9. Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida) // Doctor of Science dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019. – 71 b.
10. Safarov B.Sh. **Turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari**. – Toshkent: Fan, 2016. – 220 b.
11. Abdukhamidov S.A., Makhmudova A.P. Prospects for the development of recreational tourism in Uzbekistan // Builders of the Future. – 2022. – Vol. 2, No. 02. – P. 31–38.
12. Sadibekova B., Saidakhmedova N., Makhmudova A., Abdukhamidov S., Mukhamadiev A. To determine the role and importance of marketing research in the development of tourist routes // Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Vol. 8. – P. 234–237.
13. Abdukhamidov S.A. Distinctive Features of Regional Tourism Development // Theoretical & Applied Science. – 2019. – No. 4. – P. 337–341.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100